



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANDLIK SIYOSATINI RIVOJLATIRISHNING IQTISODIY YO'LLARI

Komilova Mukammal Shavkatovna
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti,
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri

Eshonqulova Dilnoza Akrom qizi
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi bandlik ko'satkichlari, ishsizlik haqida malumot, hududlar kesimidagi bandlilik darajasi, erkaklar va ayollar o'rtasidagi bandlik tafovutlari, bandlik darajasini optimal ravishda oshirishga qaratilgan chora- tadbirlar va ularning yechimlari haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. ishsizlik, bandlik ko'rsatkichlari, iqtisodiy chora-tadbirlar, siyosiy qonun-qoidalar, band aholi

Kirish

O'zbekistonda har yili aholi bandligini oshirish uchun bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda, shuningdek, nafaqat shahar joylarida balki qishliq zonalarida ham o'zini –o'zi band qilish uchun hamma shart-sharoitlar hamda qulayliklar yaratilmoqda.

Shu bilan birgalikda, ijtimoiy zaif nuqtalarni yanada yaxshilash, xususiy tadbirkorlik va oila tadbirkorligini rag'batlantirish hamda sektorlarda ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar va yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda yurtimiz bo'ylab ishsizlik darajasi kamayayotgan bo'lsa ham lekin tub aholi ishsizlik bilan qiynalmoqda. Bundan ko'rinib turadiki, yurtimizda olib borilayotgan turli xil islohotlar va chora- tadbirlarni yanada kuchaytirish, bunga masul shaxslarni yanada qattiq nazorat qilish talab etiladi. Bundan tashqari o'zining shaxsiy tadbirkorligini yaxshi yo'lga qo'yib olganlar esa ish o'rinlarini yaratish va



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ko'paytirish haqida o'ylashlari kerak. Shu bilan birga, ular o'zlarining mablag'larini va daromadlarini ko'paytirgani bilan birgalikda yurtimiz uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga juda katta yordam beradi.

Asosiy qism

Ishga joylashtirish sohasida aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun har xil turdagi kreditlar ajratilishi kerak, axborot berish tizimining qaloq ekanligi va zarur xizmatlar ko'rsatilishi past darajani bermoqda. Bundan tashqari kadrlarning aynan bir soha bo'yicha mukammal darajada bilimga ega bo'lmasligi ham iqtisodiyotimizning bir taqchil qismi ekanini ko'rsatmoqda.

Bandlik yoki aholini ish bilan ta'minlash-mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi ;

fuqorolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan mehnat daromadi beradigan faoliyati.

O'zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida, ya'ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan taminlash, insonni ishli bo'lish huquqlarini ro'yobga chiqarish kafolatlari "Aholini ish bilan ta'minlash to'grisida" gi qonunida (1992-yil 13-yanvar; 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O'zbekistonda bandlik muammolari katta e'tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o'sish su'ratlari yuqori, aholining ko'p qismi qishloqlarda yashaydi. 1998-yilda O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 33,9% davlat sektori korxona va tashkilotlarida, 66,1% esa nodavlat sektori obyektlarida, jumladan xususiy xo'jaliklarda 2,7% aholi ish bilan band edi.

Mehnatga layoqatli bo'lmagan aholi esa ishsizlarni tashkil etadi. Ishsizlik-bir qism iqtisodiy faol aholining o'ziga loyiq ish topa olmasdan qolishi va mehnat zaxirasiga aylanishi.

Rasmiy malumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-iyun oylarida mamlakatda ishlilik darajasi 5,1%ga teng bo'ldi. bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 0,4% punktga kamaygan.

Qayd etilishicha, xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari asosida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, O'zbekistonda mehnat resurslari 20,3 million kishini



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

tashkil etadi. Ulardan 15,4 millioni iqtisodiy faol aholi bo'lib, 14'6 million kishi band, 781,6ming kishi esa ishsiz hisoblanadi. Band aholining 55% yoki 8million kishi rasmiy ishda, 33% (4,8million) norasmiy ishda, qolgan 12% I (1,8million) xorijda mehnat qilmoqda. Hisobot davrida norasmiy bandlar soni 13,6% foizga kamaygan, rasmiy ishlaydiganlar soni esa 19% ga ko'paygan. Iqtisodiy nafaol aholi orasida 2million nafar kishi ta'lim olayotganlar, 2,2 million nafar ayol esa bola parvarishi bilan band. Shuningdek, 800ming kishi turli sabablarga ko'ra ishlash istagi yoki imkoniyatiga ega emas.

Hududlar kesimida ishsizlik darajasi (% da)

t/r	Viloyatlar/yillar	2020	2021	2022	2023	2024
1	Qoraqalpog'iston	10.5	10.1	9.1	7.1	5.8
2	Andijon	10.9	9.9	9.1	2020	5.4
3	Buxoro	10.6	9.8	8.8	10.5	5.4
4	Farg'ona	10.9	10.0	9.2	7.1	6.0
5	Jizzax	11.0	10.1	9.3	7.3	5.8
6	Namangan	10.6	9.7	8.9	7.0	5.6
7	Navoiy	9.4	8.8	8.0	6.3	4.9
8	Samarqand	11.0	9.9	9.3	6.6	5.4
9	Sirdaryo	11.0	10.2	9.3	7.4	5.9
10	Surxandaryo	11.1	10.2	9.3	7.4	5.9
11	Xorazm	10.9	9.9	9.0	6.6	5.4
12	Toshkent viloyati	10.5	9.4	8.8	6.8	5.7
13	Toshkent shahri	8.0	7.0	6.5	5.4	4.5

O'zbekiston bo'yicha 2024 –yilda ishsizlik 5.5%ni ko'rsatyapti. Bu so'nggi yillarga nisbatan ancha past ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiyotimiz uchun muhim hisoblanadi. 5-yil mobaynida bu jadvalda eng yuqori ko'rsatkichni olgan va yildan yilga eng yaxshi siljishni olib borgan hudud bu ---Navoiy viloyati hisoblanadi. Ya'ni Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi 9.4%dan to 4.9%ga kamaygan. Yana bir hudud – Toshkent shahri ham 8.0%dan 4.5%ga kamaygan. Bu darajalar O'zbekiston bo'yicha eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo,



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Surxandaryo va Jizzax viloyatlarida aniqlangan bo'lib bu 5.9 va 5.8 foizlarni tashkil etadi

Hududlar bo'yicha band ulushi(umumiy aholi bo'yicha)

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston	62	61.1	61.6	62.9	64.3
Andijon	66.5	68.2	69.5	70.6	70.2
Buxoro	68.3	67.2	67.2	68.7	67.7
Jizzax	66.2	67.5	66.2	66.3	66.0
Namangan	65.0	65.5	64.8	65.9	66.8
Navoiy	66.8	68.3	67.7	69.8	70.5
Samrqand	63.2	63.7	64.7	65.0	64.8
Surxandaryo	63.9	64.5	64.2	63.8	63.7
Sirdaryo	64.8	64.5	64.0	63.8	65.3
Toshkent viloyati	68.2	72.4	71.0	72.2	72.3
Farg'ona	65.1	66.2	67.1	68.4	68.0
Xorazm	63.7	64.0	64.7	66.9	66.2
Toshkent shahri	81.7	81.3	82.5	82.3	82.3
O'zbekiston	66.0	67.0	67.2	67.9	68.3

Respublikamizda har bir yilda o'sish suratinini ko'rishimiz mumkin(62%dan 64.3%gacha).O'zbekistonda 1million atrofida ishsiz ayollar bor,bunga doimiy ish o'rniga ega bo'lmagan va mavsumiy ishlarda band ayollar qo'shilsa ,ularning soni taxminan 2-2.5millionni tashkil etadi.O'zbekistonda ishsizlik darajasi o'rta hisobda jami iqtisodiy faol aholining 9.3% ini tashkil etadi.Ayollar kesimida esa 13%ko'rsatkich qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra ,2021-yilda mamlakatda ishsizlik darajasi 9.6%ni tashkil etgan bo'lsa ,2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 5.8%ga pasaygan.Bu pasayish hukumat tomonidan amalga oshirilgan bandlikni oshirishga qaratilgan islohotlar, kabi kichik biznesni qo'llab quvvatlash investitsiyalarni jalb qilish va mehnat migratsiyasini tartibga solish chora tadbirlar natijasidir.Shu bilan ishsizlikning sabablari murakkab va ko'p qirrali.Texnologik taraqqiyot natijasida ayrim kasblar yo'qolmoqda, bu esa yangi kasblarga moslashishni talab qiladi.Demografik o'sish ayniqsa yoshlar orasida, mehnat bozoriga bosimni kuchaytirmoqda.Mehnat migratsiyasi bir tomondan bandlikni yengillashtirsa ,boshqa tomondan malakali ishchining chetga chiqib



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ketishiga olib keladi. Bu holatlar ishsizlikni faqat ish o'rinlari soni bilan emas, balki sifatli bandlik bilan hal qilish zaruratini tug'diradi. Davlat tomonidan ishsizlikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orasida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi, "Har bir oila-tadbirkor" dasturi, "Yoshlar daftari" orqali ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, kasb –hunar o'rgatish markazlari va "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali 120 mingdan ortiq fuqoro kasb-hunarga o'qitilgan va ularning 70%i doimiy ishlar bilan ta'minlangan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan 2025-yilda "Bandlikni ta'minlash milliy strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiya doirasida 2025-2030-yillar orasida har yili kamida 500 ming yangi ish o'rni yaratish, ayniqsa qishloq joylarida bandlikni oshirish, ayollar va nogironligi bor bo'lgan shaxslar uchun maxsus ish o'rinlari tashkil etish rejalashtirilgan.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bandlikni oshirish muammosini hal qilish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu borada iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish, qishloq joylarida bandlikni ta'minlash va xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat jumladan imtiyozli kreditlar, soliqlar bo'yicha yengilliklar, ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bandlikni oshirishga bosqichma-bisqich xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, farovon hayot, fuqorolarga yengillik berishi bilan birga kelajakdagi farovon turmush darajasiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Bandlikni oshirish yo'llarining bir qancha turlari mavjud bo'lib ular :

- Yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish
- Investitsiyalarni jalb qilish
- Malaka oshirish va ishga tayyorlash kurslarini yo'lga qo'yish –
- Bandlikni rag'batlantirish dasturlari, qishloq joylarda ish o'rinlarini yaratish
- Ayollar va yoshlar bandligini oshirish



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Agar har bitta metodlar davlat va masul shaxslar tomonidan yaxshi monitoring qilinadigan bo'lsa, bandlikni oshirish mavzusida ancha yaxshi yangiliklar guvohi bo'lishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.stat.uz-O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi
- 2.lex.uz.Prezident qarorlari
- 3.kun.uz
- 4.O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash" to'g'risidagi qonun
- 5.Yo. Abdullayev. Statistika nazariyasi.Toshkent.2002.
- 6.Shahbox Yaxsholikhov.Bandlikni ta'minlashning konseptual asoslari
- 7.Qunduzbonu Ahmatova.bandlikni taminlash va kambag'allikni qisqartirishni yuzaga keltiruvchi sabablar hamda ularning yechimi